

“HAMLET” AND “PADARKUSH” AS COMPARATIVE TRAGEDIES: THE DYNAMICS OF TRAGIC IMAGES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389205>

Buxdu, Kadirova. Z.B.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Hamlet va Padarkush asarlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, tragik obraz dinamikasi maqolasi yoritilgan. Tadqiqotda ingliz va o'zbek adabiyotida tragik qahramon psixologiyasi, ichki konflikt, ijtimoiy muhit va ruhiy inqirozning badiiy ifodasi o'rganildi. Shuningdek, Hamlet va Padarkush qahramonlarining fikriy va psixologik o'zgarishlari adabiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Maqolada tragediya janrida obraz dinamikasining ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Annotation:

The tragedy genre occupies an important place in world literature due to its deep psychological interpretation and artistic expression of human destiny. In both English and Uzbek literature, tragic heroes are represented through complicated emotional experiences, moral conflicts and social contradictions. William Shakespeare and Mahmudxo'ja Behbudiy created unforgettable tragic characters whose inner sufferings reflect universal human problems. The comparative study of Hamlet and Padarkush demonstrates similarities and differences in the dynamics of tragic images. The concept of image dynamics refers to the psychological, moral and ideological transformation of literary characters throughout the plot development.

Аннотация:

Жанр трагедии занимает важное место в мировой литературе благодаря глубокому психологическому анализу и художественному выражению человеческой судьбы. Как в английской, так и в узбекской литературе трагические герои изображаются через сложные эмоциональные переживания, моральные конфликты и социальные противоречия. Уильям Шекспир и Махмудходжа Бехбудий создали незабываемых трагических персонажей, чьи внутренние страдания отражают универсальные человеческие проблемы. Сравнительное исследование «Гамлета» и «Падаркуша» демонстрирует сходства и различия в динамике трагических

образов. Концепция динамики образа относится к психологической, моральной и идеологической трансформации литературных персонажей на протяжении развития сюжета.

Kalit so'zlar

tragediya, obraz dinamikasi, tragik qahramon, psixologik konflikt, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy obraz.

Key words

tragedy, image dynamics, tragik hero, Psychological conflict, comparative literature, literary image,

Ключевые слова

трагедия динамика образа трагические герой психологический конфликт сравнительное литературоведение художественный образ.

Tragik obraz va uning dinamikasi. Adabiyotshunoslikda obraz dinamikasi qahramonning voqealar jarayonida ichki va tashqi jihatdan o'zgarib borishini anglatadi. Tragediya janrida esa bu jarayon yanada murakkab tus oladi. Chunki tragik qahramon ko'pincha hayot va taqdir o'rtasidagi og'ir ziddiyatga duch keladi.

Hamlet asarida Hamlet obrazi ruhiy azob, ikkilanish va intiqom tuyg'ulari orqali rivojlanadi. Asar boshida u otasining o'limi va onasining tez qayta turmush qurganidan qattiq iztirob chekadi. Keyinchalik uning ichki dramasi yanada chuqurlashib boradi. Hamletning mashur monologi uning ichki konfliktlarini yorqin ifodalaydi. Masalan: "To be, or not to be: that is the question."

Ushbu parchada qahramonning hayot va o'lim haqidagi falsafiy mushohadasi namoyon bo'ladi. Bu holat tragik obraz dinamikasining psixologik chuqurlashuvini ko'rsatadi.

"Padarkush" asarida tragik konflikt. Padarkush asarida ham ijtimoiy va ma'naviy inqiroz markaziy o'rinni egallaydi. Asardagi fojia jaholat, tarbiyasizlik va ma'naviy inqiroz oqibati sifatida tasvirlangan. Behbudiy jaddchilik g'oyalarini ilgari surib, millat taraqqiyoti uchun ma'rifat muhim ekanini tragik voqealar orqali ko'rsatadi. Asardagi qahramonlar o'z xatolari va muhit ta'siri tufayli fojiaga yuz tutadi. Hamlet obrazi individual psixologik dramani ifodalasa, "Padarkush" dagi fojia ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan. Shu jihatdan ikki asarning tragik obrazlari turlicha rivojlanadi.

Qiyosiy tahlil: William Shakespeare tragediyalarida inson ichki kechinmalari va ruhiy inqiroz asosiy o'rin tutadi. Mahmudxo'ja Behbudiy asarida esa ijtimoiy muammolar va millat taqdiriga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Tragik konflikt mavjud, qahramon ichki azobga duch keladi, fojia ma'naviy inqiroz bilan bog'lanadi. Biroq Hamlet falsafiy va psixologik obraz sifatida namoyon bo'lsa "Padarkush" asarida qahramonlari ijtimoiy ma'rifiy muammolar ramzi sifatida gavdalanadi. Bu esa ingliz va o'zbek adabiyotida tragik obraz dinamikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi

Conclusion

Xulosa qilib aytganda, Хулоса қилиб айтганда, Hamlet va Padarkush asarlari tragediya janrining muhim namunasi hisoblanadi. Ikkala asarda ham tragik obrazlar muayyan psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanadi. Hamlet obrazida ichki falsafiy ziddiyat ustun bo'lsa "Padarkush" asarida ijtimoiy muhit va ma'rifatsizlik fojiaga sabab bo'ladi. Shu tariqa, tragik obraz dinamikasi har ikkala adabiyotda inson va jamiyat munosabatlarini yoritishga muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

REFERENCES:

1. Hamlet. London: Penguin Classics, 2003.
2. Padarkush. Toshkent: O'zbekiston, 1991.
3. Қуроноф Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, 2018.
4. Раҳмонов М. Ўзбек драматургияси тарихи. – Тошкент, 2004.
5. Bradley A.C. Shakespearean Tragedy. – London, 1991.